

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000 –Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta‘lim sohasi:	910 000 –Sog‘liqni saqlash 410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta‘lim yo‘nalishi:	60910200 – Davolash ishi 60910100 - Stomatologiya 60910300 - Pediatriya ishi 60910600 - Tibbiy biologik ish 60911100 - Xalq tabobati 60411200 - Menejment 60711800 - Biotibbiyot muhandisligi 60911200 - Oliy ma‘lumotli hamshira 60910400 - Tibbiy profilaktika ishi

Toshkent–2023

Modul kodi O‘RK 2402	O‘quv yili 2023/2024	Semestr 4	Kreditlar 2	
Modul turi Tanlov	Ta‘lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Modulning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)	Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	30	30	60
2.	<p>I. Modulning mazmuni</p> <p>Modulni o‘qitishdan maqsad – talabalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstituziyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish fani to‘g‘risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish. Talabalarda Konstituziyni asosiy g‘oyalarini bilim bazasida shakllangan umuminsoniy tafakkur taraqqiyotining tizimli qonuniyatlari ko‘nikmasini shakllantirish, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bulishini, davlat hokimiyatining oliy organi ham qonunlarga bo‘ysinishi va qonunlarning muqqarar ijrosini ta‘minlanishini, Konstituziyaning umummetodologik ko‘nikmalaridan foydalana olish xususiyatini tarbiyalashdan iboratdir.</p> <p>Modulning vazifalari talabalarga mamlakatimizda olib borilgan konstituziyaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga, Konstituziyada belgilangan yangi huquq va erkinliklaridan xabardor bo‘lishlariga, umuman olganda, konstitutsiyaviy bilimlari ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalarda O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstituziyasida mustahkamlangan muhim normalarga doir bilimlarini oshirish hamda amalda go‘llay olish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p>			
	<p>II. Asosiy nazariy qism</p> <p>II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Konstitutsiyada davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligiga oid me‘yorlar.</p> <p>O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilashi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishi. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili - o‘zbek tili. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subekti. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishi.</p> <p>2-mavzu. Insonning huquq va erkinliklari.</p> <p>Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishligi.</p>			

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi hamda qonunlarning, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi.

Hech kimga uning roziligidan qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi. Insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqi. Har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqi. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqi.

Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar, uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi.

3-mavzu. Ta'lim olish huquqlari.

Har kim ta'lim olish huquqiga egaligi. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlanishi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazorati.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi. Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqligi. Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi.

4-mavzu. Konstitutsiyada sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar.

Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini rivojlantirish choralari ko'rishi. Davlat aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashi. Davlat tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish choralari ko'rishi.

Fuqarolar tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqli ekanligi. Davlat aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi. Davlat yoshlarning sog'lig'ini saqlashga oid huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar.

5-mavzu. Konstitutsiyada fuqarolarning burchlari bilan bog'liq me'yorlar.

Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlari. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanligi. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab avaylashi

zarurligi. Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashi shart ekanligi.

6-mavzu. Konstitutsiyada davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga oid muhim demokratik o'zgarishlar.

Qonunchilik palatasining vakolatlari. Bosh vazir nomzodi. Senat faoliyati. Sud hokimiyatining mustaqilligi. Qonunchilik palatasi va Senatning parlament tekshiruvini o'tkazish huquqi. Qonunchilikka takliflar kiritish instituti. Saylov huquqi. Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot, kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya kabi sohalaridagi vakolatlari. Viloyat, tuman, shahar hokimi avozimiga oid o'zgartirishlar.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi. Ularning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil ravishda hal etish huquqi.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Konstitutsiyada davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligiga oid me'yorlar.

2-mavzu: Insonning huquq va erkinliklari.

3-mavzu: Ta'lim olish huquqlari mazmun mohiyati va ahamiyati.

4-mavzu: Konstitutsiyada sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar.

5-mavzu: Konstitutsiyada davlat zimmasidagi muhim ijtimoiy majburiyatlar.

6-mavzu: Konstitutsiyada atrof-muhit va ekologik huquqlarga oid kafolatlar.

7-mavzu: Konstitutsiyada tadbirkorlarga berilgan kafolatlar.

8-mavzu: Konstitutsiyada davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga oid muhim demokratik o'zgarishlar.

9-mavzu: Konstitutsiyada fuqarolarning burchlari bilan bog'liq me'yorlar.

Seminar mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar mul'timedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston ijtimoiy davlat tushunchasining mazmuni.

2. O'zbekiston dunyoviy davlat tushunchasining mazmuni.

3. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi

4. O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati organlari tizimi

5. Insonning huquq va erkinliklari tushunchasi.

6. Inson huquqlarining tarixiy rivojlanishi.

7. Konstitutsiyada surishtiruv, tergov va sud jarayonida inson huquqlariga oid muhim kafolatlar.

	<p>8. Konstitutsiyada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlariga oid muhim huquqlar.</p> <p>9. Ta'lim olish huquqlari mazmun mohiyati va ahamiyati.</p> <p>10. Konstitutsiyada sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalar.</p> <p>11. Ijtimoiy majburiyatlar tushunchasi.</p> <p>12. Ijtimoiy soha tushunchasi.</p> <p>13. Konstitutsiyada davlat zimmasidagi muhim ijtimoiy majburiyatlar.</p> <p>14. Konstitutsiyada ijtimoiy sohadagi yangiliklar.</p> <p>15. Siyosiy soha tushunchasi.</p> <p>16. Konstitutsiyadagi siyosiy sohalardagi muhim yangiliklar.</p> <p>17. Ekologiya va atrof muhit.</p> <p>18. Konstitutsiyada atrof-muhit va ekologik huquqlarga oid kafolatlar.</p> <p>19. Tadbirkorlik sohasi.</p> <p>20. Konstitutsiyada tadbirkorlarga berilgan kafolatlar.</p> <p>21. Odil sudlov tushunchasi.</p> <p>22. Konstitutsiyada odil sudlovga oid yangiliklar.</p> <p>23. Davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi.</p> <p>24. Konstitutsiyada davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga oid muhim demokratik o'zgarishlar.</p> <p>25. Ommaviy axborot vositalari tushunchasi.</p> <p>26. Konstitutsiyada ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlarga oid muhim qoidalar.</p> <p>27. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini boshqa davlatlar Konstitutsiyalaridan farqli jihatlari.</p> <p>28. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasini 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyadan farqli jihatlari.</p>
3.	<p>V. Ta'lim natijalari/ kasbiy kompetentsiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning tuzilishi; Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari; Ta'lim olish huquqlari mazmun mohiyati va ahamiyati; Sog'liqni saqlashga oid muhim qoidalari; Ijtimoiy majburiyatlar va Konstitutsiyadagi davlat zimmasidagi muhim ijtimoiy majburiyatlar; Ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya; Tadbirkorlarga berilgan kafolatlar; Davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi; Konstitutsiyada siyosiy va ijtimoiy sohadagi muhim huquqiy normalar haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi (bilim)</i>; • Konstitutsiyaviy huquq manbalari tizimini bilish qobiliyatini namoyish etish; Konstitutsiyaviy huquqning zamonaviy manbalari, ularning munosabatlarini bilishi va ulardan foydalana <i>olishi kerak (ko'nikma)</i>; • Konstitutsiyaga oid axborotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanish, mantiqiy tahlil etish, o'zining kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni analitik va sintetik fikrlash asosida qabul qilish; yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olish, takomillashtirish va o'z mehnatini ilmiylik va bunyodkorlik asosida tizimli tashkil qilish; fikr va qarashlarini og'zaki va yozma ravishda adabiy til

	qoidalari asosida konstruktiv, mantiqiy ifoda etish malakalariga ega bo'lishi kerak (malaka).
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o'yinlar; • Seminar(mantiqiy fikrlash, teskor savol-javoblar; • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p style="text-align: center;">Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. . – Toshkent, 2023. 2. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent, Adolaf' milliy huquqiy axborot markazi, 2023. - 180 b. 3. Bekov L. Konstitutsiyada o'qituvchi maqomi: Uchinchi Renessansning mustahkam zamini. "Yangi O'zbekiston" gzetasi. Ng52-son. 16-mart 2023. 4. Ziyamammedova Sh.. Shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasi. "Huquq" gazetasi N 20-son. 18-may 2023-yil. 5. Isayeva F. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o'zgardi? "Inson va qonun" gazetasi. 19 - son. 16-may 2023-yril. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021. - 464 b. 7. Saidov A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – Toshkent, 2012. 8. Inson Huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari Milliy Markazi va BMT. – Toshkent, 2008. <p style="text-align: center;">Internet manbaalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. www.lex.uz 10. www.konstsud.uz
7	<p style="text-align: center;">Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>Modulning o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023 yil "25" 07 <u>01335</u> dagi <u>1</u>-sonli buyrug'i (buyruqning <u>1</u>-ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p style="text-align: center;">O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova</p>

8.	<p>Fan/Modul uchun ma'sullar: S.D. Norqulov - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., professor. F.S. Atamuratova - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n. N.X. Abduraxmonova - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: D.T.Norqulov - TTA Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, falsafa fanlari doktori. Tashqi taqrizchi: I. Bekov - TYI kafedra mudiri yuridik fanlari doktori.</p>